

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi**

Namangan muhandislik qurilish instituti

Transport fakulteti

Ijtimoiy fanlar kafedrası

**“Jonajon O'zbekistonim, mangu
bo'l omon!”**

mavzusida mustaqillik darslarini tashkil etish bo'yicha

D A S T U R va USLUBIY QO'LLANMA

Namangan – 2019

Ushbu qo'llanma O'zbekiston Respublikasida 28 yillik mustaqil taraqqiyot davrida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy sohada qo'lga kiritilgan salmoqli yutuqlar, amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlari, ularning ma'no-mohiyati va ahamiyatini o'quvchilariga yetkazish maqsadida **“Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!”** mavzusidagi “Mustaqillik darslari”ni o'tkazish uchun tuzilgan.

Mazkur uslubiy qo'llanma oliy o'quv yurti talabalari uchun mo'ljallangan.

Dastur va uslubiy qo'llanma Nam MQI Ijtimoiy fanlar kafedrasining 2019 yil ____ avgustdagi yig'ilishida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

Kafedra mudiri : _____dots. M.Boltayeva

Mazkur uslubiy qo'llanma Transport fakulteti Ilmiy-uslubiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2019 yil ____ avgustdagi “_”- sonli baynnoma).

Fakultet kengashi raisi: _____dots. J.Xolmirzayev

Tuzuvchilar:

dots. S.Karimbayeva
kat.o'qit. A.Otaxanov
ass. N.Abdullajanova

Taqrizchi:

prof. M.Ismoilov

KIRISH

Xalqimiz asrlar davomida intilib yashagan va kurashgan, «mustaqillik» degan bebaho ne'matning qadr-qimmatini yosh avlodning teran idrok etishi, o'tgan davr mobaynida bosib o'tgan og'ir va mashaqqatli, ayni vaqtda sharaflı yo'limiz, keng ko'lamli islohotlarimiz, qo'lga kiritgan ulkan yutuqlarimizning tub mohiyati va ahamiyatini o'quvchilarga yetkazish, sodda qilib aytganda, biz kecha kim edigu bugun kim bo'lganimizni anglatish, ularni yangi marralar sari ruhlantirish maqsadida "Mustaqillik darsi"ni o'quvchilarning faol ishtirokini tahminlagan holda tashkil etish lozim.

Darsni tashkil etishdan oldin sinf xonasi mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar aks ettirilgan shiorlar bilan bezatiladi.

Darsda o'quvchilarga mustaqillikning mohiyati va ahamiyatini anglatishda quyidagi ustuvor yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish tavsiya etiladi:

mustaqillik biz uchun milliy davlatchiligimizni, o'zligimiz, insoniy haq-huquq va qadr-qimmatimizni tiklash, urf-odat va an'analarimizni, muqaddas islom dinimizni, buyuk ajdodlarimizning tabarruk nomlarini ulug'lash, sog'lom va barkamol yangi avlodni shakllantirish bo'yicha ilgari tasavvur ham qilib bo'lmaydigan beqiyos imkoniyatlar ochib bergani;

yaqin o'tmishda qoloq agrar respublika bo'lgan, iqtisodiyotining asosini paxtachilik va paxtani qayta ishlash korxonalari tashkil etgan O'zbekistonning bugungi kunda sanoati tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgani, zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini barpo etish hisobidan iqtisodiyotda sanoatning ulushi 25 foizdan o'tgani, eksportbop va raqobatdosh mahsulotlarning 60 foizdan ortig'i yuqori texnologiyalarga asoslangan sohalarda ishlab chiqarilayotgani, kuch-qudrati va salohiyati yuksalib borayotgan mamlakatga aylangani;

tarixan qisqa davrda mamlakatimiz iqtisodiyoti 5,5 barobardan ko'proq o'sgani, aholimizning real daromadlari jon boshiga hisoblaganda qariyb 9 barobar oshgani, bunga erishish uchun o'tgan davr mobaynida iqtisodiyotimizga 190 milliard dollar hajmidagi investitsiyalar, jumladan, 65 milliard dollardan ortiq xorijiy sarmoyalarni jalb etish hisobidan biz uchun mutlaqo yangi bo'lgan avtomobilsozlik, neft va gaz kimyosi, neft-gaz mashinasozligi, zamonaviy qurilish materiallari sanoati, temir yo'l mashinasozligi, maishiy elektronika, farmatsevtika, yuqori texnologiyalarga asoslangan oziq-ovqat va to'qimachilik sanoati kabi soha va tarmoqlarga asos solingani;

qishloq xo'jaligi sohasida mutlaqo yangi iqtisodiy munosabatlar joriy etilib, fermerlik harakati rivoji uchun keng yo'l ochib berilgani, bugungi kunda fermer xo'jaliklarimiz nafaqat qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 90-92 foizini ishlab chiqarayotgani, balki qishloq taraqqiyoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan qudratli ijtimoiy-siyosiy harakatga aylanib borayotgani;

mustaqillikka qadar mamlakatimizda umuman mavjud bo'lmagan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi bugungi kunda yalpi ichki mahsulotning 56 foizdan ortig'ini ishlab chiqarayotgani, mazkur tarmoqda jami ish bilan band aholining 75-77 foizi mehnat qilayotgani va boshqa misollar orqali yurtimizda bu

sona jadai rivojlanib, o' rta sini – muirkdoriar sinirining jamiyat tayancniga aylanib borayotgani;

yurtimiz, shahar va qishloqlarimiz qiyofasi yildan-yilga ochilib, tobora obod va go'zal bo'lib borayotgani, jumladan, qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida zamonaviy uy-joylar va infratuzilma tarmoqlarini barpo etish bo'yicha joriy etilayotgan dasturlarning ijtimoiy ahamiyati;

mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab aholimiz, birinchi navbatda keksa avlod vakillari, xotin-qizlar va yoshlarga doimiy e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish uchun davlat byudjetidan ijtimoiy ehtiyojlar, jumladan, aholini qo'llab-quvvatlash va sotsial sohani mustahkamlashga ajratilayotgan yillik harajatlar izchil oshib borayotgani;

yurtimizda hukm surayotgan tinch va osoyishta hayot, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni saqlash, chegaralarimiz daxlsizligini asrash, uzoq va yaqin atrofimizdagi davlatlar bilan do'stona munosabat va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlash, turli mintaqa va hududlarda xavf-xatar va tahdidlar tobora kuchayib borayotgan tahlikali zamonda doimo ogoh, sergak va hushyor bo'lib yashash, safarbarligimizni yanada oshirish – bugun hayotning o'zi barchamizdan talab qilayotgan eng muhim va dolzarb vazifamiz ekanligi;

**“Jonajon O‘zbekistonim, mangu bo‘l omon!” mavzusidagi mustaqillik
darslari o‘quv dasturining tarkibiy tuzilishi**

№	Mashg‘ulot turi	Ajratilgan soat
	Ma‘ruza	
1.	„Jonajon O‘zbekistonim, mangu bo‘l omon!“ (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 8 iyuldagi “O‘zbekiston respublikasi davlat mustaqilligining 28 yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorida ilgari surilgan g‘oyalar xususida)	2 soat
	Seminar	
2	Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari (O‘zbekiston Respublikasida 2016-2019 yillar davomida amalga oshirilgan islohotlar, jamiyat hayotidagi yangiliklar, O‘zbekiston xalqining milliy g‘oyasi xususida)	2 soat
	Amaliy mashg‘ulot	
3	Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz Talaba-o‘quvchilar O‘zbekiston Respublikasining turli hududlarida barpo etilgan diqqatga sazovor joylar, ma‘naviyat va madaniyat maskanlari bilan tanishtiriladi, oliy ta‘lim muassasiga yaqin bo‘lgan joylarga borgan holda, boshqalari esa taqdimot tariqasida tanishtirilishi mumkin)	2 soat
	Jami	6 soat

O'QUV DASTURI mavzulari

1-mavzu. „Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!”

(2 soat)

Reja:

1. Harakatlar strategiyasi – O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida muhim dastur
2. 2019 yil “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”
3. 28 yil mobaynida o'zbek xalqi va O'zbekiston nimalarga erishdi?

Eng ulug', eng aziz bayramimiz – O'zbekiston mustaqilligining yigirma sakkiz yilligi bayrami qalblarimizga shukuh baxsh etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning 2019 yil 8 iyulda imzolagan “O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma sakkiz yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”gi qaroriga muvofiq mazkur bayram “**Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!**” degan bosh g'oya asosida tashkil etilmoqda.

Haqiqatan ham xalqimizning ushbu xohish-irodasi biz uchun muqaddas. Mana, 28 yildirki mustaqillik bizning eng muqaddas tuyg'umiz, buyuk ne'matimiz, eng oliy qadriyatimizga aylandi.

Bugun O'zbekiston o'ziga xos taraqqiyot yo'lida yangi bosqichga qadam qo'ymoqda. Mamlakatimizda fuqarolarga o'z iqtidorini ko'rsata olish va orzularini ro'yobga chiqarish imkon beradigan tizim shakllandi. Amaliyotga tatbiq etilgan qonun ustuvorligi tamoyili fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirish, tashabbuskorlik va tadbirkorlik xususiyatlarini jonlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Harakatlar strategiyasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning saylovoldi uchrashuvlarida qayd etilgan mamlakatni har tomonlama rivojlantirishga oid kontseptual g'oyalari metodologik asos bo'ldi. Mazkur Harakatlar strategiyasida quyidagi 5 ta ustuvor yo'nalishlar belgilangan:

1. **Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish.**
2. **Qonun ustuvorligini ta'lminlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish.**
3. **Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish.**
4. **Ijtimoiy sohani rivojlantirish.**
5. **Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'lminlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.**

Ushbu hujjat 1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari hamda 2010-yilda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov taqdim etgan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi”da belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlar doirasidagi demokratik yangilanish hamda modernizatsiya jarayonlarining mantiqiy va qonuniy, izchil va uzviy davomidir.

Umumiy hisobda Harakatlar strategiyasida 2017–2021 yillarda umumiy qiymati **40 milliard AQSH dollari** miqdoridagi **649 ta investitsiya** loyihasini

nazarda tutilgan tarmoq qasrlarini ro yonga chiqarish rejalashtirilgan. Natijada ushbu yillarda sanoat mahsulotlarini **ishlab chiqarish 1,5 baravar**, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi **33,6 foizdan 36 foizgacha**, qayta ishlash tarmog'i ulushi **80 dan 85 foizgacha** oshadi.

Ayni paytda bu muhim strategiya davlatimiz va jamiyatimizni rivojlantirishning mutlaqo yangi bosqichini boshlab bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi farmonida umumiy qiymati **16,9 trillion so'm va 8,1 milliard AQSH dollariga** teng loyihalar amalga oshirilmoqda.

Shu asosda yurtimizda faol investitsiya siyosati yuritilmoqda, zamonaviy korxonalar barpo etilmoqda, soliq tizimi tubdan isloh qilinib, tadbirkorlik va xususiy mulkni rivojlantirish, barcha soha va tarmoqlarda innovatsiya, ilm-fan yutuqlari, yangicha va ijodiy yondashuvlarni joriy etishga alohida ehtibor berilmoqda.

– Sovet mustabid tuzumi davrida O'zbekiston haq-huquqiga ega bo'lmagan, mustabid, qaram mamlakat edi. Bugun biz ozod, erkin, demokratik, huquqiy, insonparvar mamlakatga aylandik;

– 28 yil avval mamlakatimiz jar yoqasiga kelib qolgan, iqtisodiyoti inqirozga uchragan, bir yoqlama rivojlangan, paxta yakkahokimligiga asoslangan davlat edi. Bugun esa o'z taraqqiyot yo'lini tanlab olgan, rivojlanib borayotgan sanoat industriyasiga ega, raqobatbardosh eksport mahsulotlari chiqarib, jahon bozorlarida o'z o'rniga ega bo'lib borayotgan mamlakat;

– mustabid sovet davrida o'z tashqi siyosatini mustaqil ravishda yurgiza olish imkoniga, dunyo hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lmagan mustamlaka "davlat" bo'lsak, bugun O'zbekiston jahon hamjamiyatida tobora mustahkam o'rin egallab borayotgan, turli nufuzli xalqaro tashkilotlarda ijtimoiy taraqqiyotga oid tinchliksevar tashabbuslari bilan tobora ehtiborga sazovor bo'lib borayotgan, o'zining mustaqil tashqi siyosatiga ega mamlakat sifatida o'z bo'y-bastimizni namoyon etmoqdamiz;

– mustaqillikkacha biz faqat sobiq "markaz"ning "qosh-qovog'i"ga qarab ish tutadigan, mustaqil ravishda biror narsani rejalashtirishga imkoni bo'lmagan, hattoki, uni tasavvur etishga umidi bo'lmagan odamlar edik. Bugun o'zining ichki va tashqi siyosatini mustaqil ravishda yurgiza olish imkoniga, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga ega, mamlakatni modernizatsiya qilish, demokratik islohotlarni tobora chuqurlashtirib borayotgan, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga aylanayotgan mustaqil davlatmiz.

Mamlakatimiz tarixida o'chmas sahifa ochgan buyuk istiqlool tufayli O'zbekiston o'tgan davr mobaynida jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallab, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil ilgarilab bormoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma sakkiz villigiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ushbu g'oyaning mohiyatiga alohida to'xtaldilar.

U o'ylar katta mazmun-moniya ega ushbu ma'ruzada jonajon O'zbekistonimizda barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, tub burilishlar, yangilanishlar to'la aks ettirildi.

Butun mamlakat bo'ylab keng quloch yozayotgan **5 MUHIM TASHABBUSNI** amalga oshirishda juda katta ezgu g'oya, hikmat, ilmiy tafakkur mahsuli bo'lgan ulug' maqsad-muddaolar bor.

Chunonchi, farzandlarimizni musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atga oshno qilishga qaratilgan **BIRINCHI TASHABBUS** yuksak did, yuksak farosat sohiblarini tarbiyalashga qaratilgan intilishlarni o'zida mujassam etgan. Axir birgina musiqaning o'zi inson ruhiyatiga beqiyos ijobiy tahsir etuvchi qudratli kuchdir. San'at, shubhasiz, insonni, borliqni anglashga, uning bor jozibadorligini his etishga o'rgatadi, ezgulikka chorlaydi.

Mazkur tashabbus bo'yicha 2019-2020 yillarda 14 dan 30 yoshgacha bo'lgan 2 million nafar yoshni madaniyat va san'at sohasiga jalb etish ko'zda tutilgan. Shuningdek, bolalar musiqa va san'at maktablarida qo'shimcha sinflar, madaniyat markazlarida cholg'u, xonandalik, tasviriy san'at to'garaklari, havaskorlik teatr jamoalari va bolalar ansambllari tashkil etiladi.

IKKINCHI TASHABBUS – yoshlarni jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat, sportga oshno qilish – har tomonlama sog'lom avlodni kamolga yetkazish demakdir. Chunki faqat qaddi-basti tik, jismonan baquvvat va sog'lom, ruhan tetik, aqlan raso o'g'il-qizlarga komillikka dahvogar bo'ladi.

Yoshlarning kompg'yuter va internetdan samarali foydalanishiga sharoit yaratishga qaratilgan **UCHINCHI TASHABBUS** ertamiz egalarining hozirgi axborot texnologiyalari asrida zamon bilan hamnafas yashashga imkon yaratadi.

Bugun kompg'yuter– qog'oz-qalam, kalkulyator, televizor, gazeta darajasidagi yangi vosita, o'quv quroli. zamonaviy bilim manbai. Internet – butunboshli xalqaro kutubxona, cheksiz imkoniyatlar dunyosi. Jahonga yuz tutayotgan O'zbekiston farzandlari tengdoshlaridan ortda qolmasin, desak, ular shu vositalarni qo'llash ko'nikmasini egallashi shart.

Yoshlar mahnaviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish **TO'RTINCHI TASHABBUSNING** asosini tashkil etadi. Zero, yuksak did, yuksak farosatga ega, jismonan sog'lom, zamonaviy axborot texnologiyalarini puxta egallagan yoshlarimiz, albatta, ilmiy, mahrifatli bo'lishi kerak. Bilim, tafakkurni shakllantirish manbai esa – kitob. Usiz kamolotga, mahrifatga, mahnaviyatga erishib bo'lmaydi.

Xotin-qizlarni ish bilan ta'lminlashga qaratilgan **BESHINCHI TASHABBUSNING** ahamiyati ham cheksiz. Uning mohiyatida jamiyatda xotin-qizlar o'z o'rniga, mavqeiga ega bo'lsin, degan ezgu maqsadlar mujassam. Bu gender tengligi, munosib mehnat tarbiyasi, ayollarimizni mehnatga oshno qilish uchun birlamchi sharoit bo'lgan yangi ish joyi degani.

Bir so'z bilan aytganda, besh tashabbus – nozikdid, keng tafakkur va dunyoqarashga ega, jismonan va ruhan sog'lom farzandlarimizning o'z kelajagini ishonch bilan qurishlari hamda Vatan ravnaqiga hissa qo'sha oladigan yetuk inson bo'lib yetishishlariga mustahkam zamindir. Besh tashabbus – madaniyat, mahrifat, mahnaviyat va sport, kompg'yuter va axborot texnologiyalari va yangi ish o'rinlarini o'zida birlashtirgan yagona innovatsion hudud, makon, muhit demakdir.

Besh tashabbus – snaxs kamoloti uchun zarur bo'lgan 5 munim omimi, xususiyat, xislat, fazilatni shakllantirish uchun yagona makonda barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish demakdir. Besh tashabbus – “Yurtimizga xizmat qilishda vijdonli, insofli va halol bo'lishimiz shart!”, deya qathiy ahd qilgan, zehni o'tkir, madaniyatli, vijdonli, vatanparvar, jismonan chiniqqan, kreativ fikrlaydigan, dunyodagi ilg'or tengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan yoshlarni tarbiyalash demakdir.

Besh tashabbus – yangilanayotgan O'zbekistonning yangi avlodini shakllantirishning eng maqbul paradigmasi – kontseptsiyasidir.

Agar ushbu tashabbuslarning barchasi bir joyda, yahni mahallada mujassamlashsa, bilingki, shu mahalla farzandlari baxtiyor voyaga yetadi. O'z ishiga, daromadiga, oilaviy farovonlikka erishgan shu hudud xotin-qizlaridan baxtli ayollar bo'lmaydi. Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan g'oyaning asl qadr-qimmati va mohiyati ham shunda.

Mahallalarda madaniyat markazlari, zamonaviy kutubxonalar, kitob o'qish uchun sokin joylar, zamonaviy to'garaklar, kompg'yuter va tezkor internet, Wi-Fi hududlari, kovorking xonalari, raqamli texnologiyalar o'quv markazlari, amfiteatrlar, universal sport maydonlari bunyod etilmoqda. Bu obyektlar zarur o'quv qo'llanmalari, badiiy adabiyotlar, musiqa va cholg'u asboblari, sport jihozlari, optik tolali aloqa liniyalari bilan ta'lminlanmoqda. Xotin-qizlarimiz uchun muqim, munosib ish o'rinlari yaratilyapti.

Umumta'lim maktablarida 11 yillik tizimni tiklandi. Maktab ta'limini rivojlantirish masalasi buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanmoqda.

Misol uchun, keyingi yillarda Prezidentimiz tomonidan xalq ta'limi tizimiga oid 6 ta farmon va qaror, Vazirlar Mahkamasining 21 ta qarori qabul qilinib, bu sohadagi islohotlarning huquqiy-mehyoriy asoslari mustahkamlandi.

Ota-onalar, jamoatchilikning istaklari inobatga olinib, yurtimizda 11 yillik maktab ta'limi tizimi tiklandi. So'nggi uch yilda yurtimizda 157 ta umumta'lim maktabi yangidan qurildi.

Ulug' allomalarimiz – Mirzo Ulug'bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroyim Yusupov, Ishoqxon Ibrat, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdieva nomlari bilan atalgan ijod maktablari, “Temurbeklar maktabi”, Prezident maktablari, xususiy maktablar singari yangi va zamonaviy namunadagi ta'lim dargohlari tashkil etilgani yurtimiz farzandlari uchun ta'lim-tarbiya olish borasida yangi imkoniyatlar ochib bermoqda.

Pedagog xodimlar mehnatini rag'batlantirish bo'yicha katta ishlar qilinmoqda. Oxirgi 3 yilda o'qituvchilarning ish haqi o'rtacha **2,5 barobar oshirildi**. Uzoq tumanlarga borib ishlayotgan pedagog kadrlar mehnatini rag'batlantirish bo'yicha aniq mezonlar belgilandi. Ularga **50 foizgacha qo'shimcha oylik ustamalar to'lanmoqda**. Bu olis hududlarda yetishmayotgan mingdan ziyod o'qituvchini jalb etish imkonini berdi. Nafaqa yoshida faoliyatini davom ettirayotgan o'qituvchilarga pensiyasi to'liq miqdorda berilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda oliy ta'lim sohasi ham jadal rivojlanmoqda. Faqat keyingi uch yilda **35 ta yangi oliy o'quv yurti tashkil qilindi va ularning**

umumiy soni 112 taga yetdi. Bularning 15 tasi nuruzii xorijiy universitetlarning filiallari ekanini alohida ta'kidlash lozim.

Keyingi yillarda kam ta'minlangan, nogironligi bo'lgan insonlar, yoshlar, xotin-qizlar, keksa avlod vakillarini ijtimoiy himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bu borada Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar agentligi, Nogironligi bo'lgan insonlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etilganini qayd etish lozim.

Aholi, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash biz uchun eng dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda. Bizning barcha iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarimiz, yirik investitsiya loyihalarimiz, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarimizning markazida aynan shu muhim masala asosiy maqsad va vazifa bo'lib turibdi.

Uzoq vaqt davomida o'tkir muammo bo'lib kelgan aholini uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha ham yurtimizda yangi davr boshlandi, desak, xato bo'lmaydi.

Mamlakatimizning madaniy hayotida ham ulkan o'zgarishlar yuz bermoqda. Birinchi marta Shahrisabz shahrida Xalqaro maqom san'ati anjumani, Termiz shahrida Xalqaro baxshichilik san'ati festivali katta muvaffaqiyat bilan o'tkazildi. Kuni kecha Samarqand shahrida yuksak saviya va baland ruh bilan o'tkazilgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali betakror mumtoz san'atimizni yana bir marta dunyoga namoyon etdi. Sentyabr oyida esa Qo'qon shahrida ilk bor Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazamiz.

O'tgan davr mobaynida sud-huquq tizimini isloh qilish va jinoyat qonunchiligini liberallashtirish borasida amalga oshirilgan islohotlar izchilligini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

Birinchi bosqich, 1991-2000 yillarni o'z ichiga olib, bu davrda, yangi davlat va jamiyat barpo etishning oqilona strategiyasi ishlab chiqildi. Sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlashning huquqiy asoslari yaratilib, mamlakatimiz tarixida ilk bor Konstitutsiyaviy sud qaror topib, yangi mazmundagi umumiy yurisdiksiya sudlari, xo'jalik sudlari joriy etildi. "Sudlar to'g'risida"gi Qonun, Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi, odil sudlovga oid boshqa qonunchilik bazasi vujudga keldi.

Ikkinchi bosqich, 2001-2009 yillarni o'z ichiga olib, ushbu bosqich faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri bo'lib, bunda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, siyosiy hayot, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy sohalarini izchil isloh qilish ta'minlandi.

Uchinchi bosqich, 2010 yildan 2016 yilga qadar bo'lgan davrni o'zi ichiga olib, mazkur bosqichdagi sud-huquq islohotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 12 dekabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma yig'ilishida so'zlagan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Kontseptsyasi" bilan bog'liq.

Unda **kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy davlat barpo etishda sud-huquq tizimini izchil isloh qilishning eng muhim jihatlari aks etdi.**

To'rtinchi bosqich, 2016 yil sentyabrg' oyidan keyingi davr bo'lib, ushbu bosqichda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrdagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni,

2017-yil 1 fevraldagi Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi", 2017-yil 20 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining qabul qilinishi bilan sifat jihatdan yangi davr boshlandi.

Mamlakatimizda mahbuslarni afv etish instituti joriy etildi. Keyingi uch yilda yetti marta afv ehlon qilindi. Natijada qilmishidan chin dildan pushaymon bo'lib, tuzalish yo'lga qathiy o'tgan 4 mingga yaqin mahbus jazoni o'tash joylaridan ozod etildi. Kuni kecha afv etish haqidagi yana bir farmonga imzo chekdim. Unga ko'ra jazo muddatini o'tayotgan 65 nafar fuqaro afv etildi.

Tasavvur qiling, o'z uyiga, yaqinlari bag'riga qaytayotgan bu insonlarning, ularning ota-onasi, farzandlarining quvonchi, xursandchiligini "oynai jahon" orqali ko'rgan odam, bu haqiqatan hamezgu va savobli ish ekaniga yana bir bor ishonch hosil qiladi.

Mustaqillik bayrami arafasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jasliq qo'rg'onidagi jazoni ijro etish koloniyasi yopilgani insonparvar siyosatning yana bir ifodasi bo'ldi.

Bu tarixiy qadam mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish vaqtinchalik kampaniya emas, balki davlat siyosati darajasidagi uzluksiz jarayon ekanini ko'rsatadi.

Bugungi kunda O'zbekiston o'z fuqarolarining huquq va manfaatlarini, ular qaerda bo'lishidan qathi nazar, himoya qilishga qodir mamlakat sifatida o'zini namoyon etmoqda.

Chet ellarda ishlayotgan va ta'lim olayotgan vatandoshlarimiz bilan aloqalar mustahkamlanib, ularning huquq va manfaatlari ta'minlanmoqda. O'zbekistonga qaytib, ish yoki o'qish faoliyatini davom ettirish istagida bo'lgan fuqarolarimiz uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda.

Bu yil 156 nafar vatandoshimiz – asosan ayollar va bolalar jangovar harakatlar davom etayotgan Suriyadan qaytarib olib kelindi va ularning fuqarolik huquqlari tiklandi. Albatta, kechirimli, mehr-oqibatli bo'lish xalqqa ham, Xudoga ham manzur bo'ladi. Mana shunday ezgu fazilatlar bizning bag'rikeng xalqimizni yanada ulug'laydi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston tashqi siyosat sohasida ham faol va samarali faoliyat olib bormoqda. Uzoq va yaqindagi barcha davlatlar, xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarimiz tobora kengayib, rivojlanmoqda.

Avvalo, Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlari o'rnatilib, o'zaro manfaatli aloqalar yo'lga qo'yilmoqda. Minglab oddiy odamlarning chegaralardan bemalol o'tishi, mintaqamiz bo'ylab erkin harakatlanishi, qarindosh-urug'lari bilan bordi-keldi qilishlari uchun barcha sharoit yaratildi.

O'zbekiston mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda, Afg'onistonda tinchlik o'rnatishga qaratilgan muloqotlarda faol ishtirok etmoqda. Bularning barchasi mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro'-ehtiborini oshirishda, yurtimizning do'stlari va hamkorlarini ko'paytirishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Hayotimizda tinchlik-totuvlik, millatlar va dinlar o'rtasida qo'shik va hamjihatlik mustahkamlanib bormoqda. Biz buni barcha islohotlarimizning kafolati, eng muhim natijasi, deb bilamiz.

Bugungi kunda amalga oshirayotgan islohotlarimiz, xalq bilan muloqot davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani tufayli jamiyatimizda ochiqlik va erkinlik muhiti tobora kuchayib bormoqda. Odamlar tashabbus ko'rsatib, nafaqat o'z shaxsiy muammosi, balki ko'pchilikning dardu tashvishlarini hal qilish uchun davlat idoralari bilan hamkorlikda ishlashga o'rganmoqda.

Albatta, hayot bor ekan, uning o'tkir talablari, muammolari bo'lgan va bundan keyin ham bo'ladi. Lekin har qanday muammoni oqilona hal qilish uchun, avvalo, birlik, hamjihatlik zarur.

Barchamizga, ayniqsa, rahbar va yetakchilarga chuqur bilim, aql-zakovat, sabr-toqat kerak. Shuning uchun **“Jaholatga qarshi – ma'rifat”** degan fikrda katta ma'no bor. Bu g'oya faqat diniy tarbiya bilan bog'liq ishlarda emas, balki hayotimizning barcha sohalarida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Har bir masalani mahrifat asosida chuqur o'ylab, xalqqa hurmat bilan, takror va takror aytaman, odamlar fikrini inobatga olib, faqat qonun va adolat mezoniga tayangan holda hal etsak, el-yurtimiz bizdan albatta rozi bo'ladi.

Bugun zamon o'zgardi. Endi hammamiz erkinlik, ochiqlik, oshkoralik sharoitida ishlashga o'rganishimiz lozim. Barcha rivojlangan davlatlar, dunyo hamjamiyati shunday yashamoqda. Davrning, hayotning keskin talablaridan orqada qolmaslik uchun barchamiz har kuni o'qib-o'rganishimiz, o'z ustimizda ishlashimiz, bilim va saviyamizni doimo oshirib borishimiz kerak. Bizning tomirlarimizda ulug' ajdodlarimizning qoni oqmoqda. Buyuk bobolarimizning munosib izdoshlari va davomchilari bo'lish biz uchun ham qarz, ham farz.

O'z Vatanini, ona xalqini ravnaq toptirish uchun o'zini ayamasdan mehnat qilish: bu – jasorat va mardlik, bu – ona yurtga muhabbat va sadoqat, bu – to'g'ri tarbiya va amaliy namuna demakdir. Shu kunlarda o'zining fidokorona mehnati bilan mamlakatimiz rivojiga munosib hissa qo'shib, barchaga namuna bo'layotgan yurtdoshlarimizga markazda va joylarda davlatimizning yuksak unvonlari, orden va medallari tantanali ravishda topshirilmoqda.

2-mavzu. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari

(2 soat)

Reja:

- 1. Ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy yuksalish**
- 2. Huquqiy yuksalish: inson huquqlari**
- 3. Siyosiy yuksalish: tashqi siyosat**
- 4. Demokratik yuksalish: xalq bilan muloqot**

Prezidentimiz o'z nutqlarida Istiqlolning 28 yilligini bayramida **“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”** degan ezgu g'oyaning bugungi taraqqiyot davrining ustivor shiori ekanini alohida ta'kidladilar.

Bundan yigirma sakkiz yil oldin Birinchi Prezidentimiz, muhtaram Islom Abdug'anievich Karimov xalqimiz va jahon hamjamiyatiga O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qildi. O'tgan qisqa davrda jonajon O'zbekistonimiz mashaqqatli, shu bilan birga, sharaflı istiqlol yo'lini bosib o'tdi. Bugun bir haqiqatni katta g'urur va iftixor bilan aytishga to'la asosimiz bor: mard

va matonati xalqimiz qanchalik qiyin va og'ir sinovlarga duch kelmasin, o'zining mustahkam irodasini namoyon etib, o'zi tanlab olgan mustaqillik yo'liga doimo sodiq bo'lib kelmoqda.

Bugun O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga dadil qadam qo'ymoqda. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish, inson huquq va erkinliklarini, qonun ustuvorligini ta'minlash asosida O'zbekistonning yangi, demokratik qiyofasi yaratilmoqda. Bu borada Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan **"Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari"** degan ustuvor g'oya biz uchun dasturlamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Milliy yuksalish deganda, biz mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimizning hayot darajasi va turmush sifatini har tomonlama yuqori bosqichga ko'tarishni tushunamiz.

Davlatimiz, el-yurtimizning salohiyati va kuch-qudratiga tayanib, tabiiy boyliklarimizdan oqilona foydalanib, biz o'z oldimizga qo'ygan ana shunday maqsadlar sari izchil qadam qo'ymoqdamiz.

Lekin hammamiz yaxshi tushunamizki, bunday ulug' maqsadlarga o'z-o'zidan, quruq va balandparvoz gaplar bilan erishib bo'lmaydi. Bunday marralarga faqat tinimsiz, og'ir va fidokorona mehnat bilan erishiladi.

So'nggi yillarda davlat va jamiyat boshqaruvi, sud-huquq tizimini takomillashtirish, mamlakatimizning mudofaa qudratini mustahkamlash, haqiqiy bozor iqtisodiyotiga o'tish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xususiyl mulk va tadbirkorlik uchun keng sharoit va imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlanmoqda.

Qishloq xo'jaligida tub islohotlar olib borilmoqda. Bu yilgi tabiat qiyinchiliklariga qaramasdan, mirishkor fermer va dehqonlarimiz mardona mehnat qilib, ko'plab sohalarda mo'l hosil yetishtirdilar.

Misol uchun, qishloq xo'jaligida zamonaviy, istiqbolli tarmoqlarga asos solish, klaster tizimini yo'lga qo'yish, fermer xo'jaliklarining natijadorligini kuchaytirish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Yurtimizda ijtimoiy rivojlanish bo'yicha o'ziga xos tizim shakllanmoqda. Bu borada "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Yoshlar – kelajagimiz", "Besh ijobiy tashabbus" kabi dasturlarimiz aholini yangicha fikrlash va ishlashga safarbar etishda muhim rolg' o'ynamoqda. Buning natijasida yuzlab tuman, shahar va qishloqlarning mehmoriy qiyofasi tubdan yangilanmoqda.

Biz mahnaviyat va mahrifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. Vijdoni, mahnaviyati bor inson Vatanni albatta yaxshi ko'radi. Vijdon, mahnaviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir.

Misol uchun, O'zbekistonda ma'naviy yangilanishlar, avvalo, til siyosatida o'z ifodasini topdi. Darhaqiqat, mustaqillik arafasidayoq **o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi** katta tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisa bo'ldi.

Davlat tili maqomi 1992-yil dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Konstitutsiyaning 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir" deb qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan **1993 yil 2-sentyabrda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"**gi Qonun

qabul qilindi, yangi asrda o'zbek tilining miniy xususiyatlarini yozuvda mukammalroq aks ettirish imkonini berdi.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ulkan ishlardan yana biri – **ilm-fan va madaniyat rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk vatandoshlarning tavallud ayyomlari nishonlanishiga** o'zbek xalqi davlatchiligi, ilm-fani, madaniyati tarixini, mustabid tuzum yillarida unutilgan buyuk ajdodlarimizning muborak nomlarini qayta tiklashdek olijanob ishning uzviy bir qismi sifatida qaraldi.

Islom olami donishmandlari Iso at-Termiziyni 1200 yilligi, Ismoil al-Buxoriy tavalludining 1225, Abu Mansur al-Moturudiyni 1130, Mahmud az-Zamaxshariyni 920, Najmiddin Kubroni 850, Burxoniddin al-Marg'loniyni 910, Bahovuddin Naqshbandni 675, Xo'ja Ahror Valiyni 600 yilligi keng nishonlandi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning **1990 yil 2 iyundagi "Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga haj qilishi to'g'risida"**gi Farmoniga binoan, 1990-yildan boshlab **O'zbekiston musulmonlari Makka va Madinaga xaj qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar**. Prezidentning maxsus Farmoni bilan **Ro'za hayiti va Qurbon hayiti kunlarining doimiy surhatda bayram qilinib, dam olish kuni, deb ehlon qilinishi** ham O'zbekiston hukumatining xalqimizning qadimiy anhanalariga nisbatan hurmat va ehtiromining belgisi bo'ldi.

Mana shunday qarash butun xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tomonidan keng va qizg'in qo'llab-quvvatlanayotgani mahnaviy tarbiyaning naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Misol uchun, yoshlarga oid davlat siyosati – jamiyat rivojining omili sifatida qaralmoqda. **2016-yil 14 sentyabrda** O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi yangi Qonuni qabul qilindi. Yoshlarga oid davlat siyosati muhim siyosiy yo'nalish sifatida izchil jarayon bo'lib, u yoshlar mavqei va hayoti bilan bog'liq bo'lgan voqelikning bosh xususiyatlarini o'zida mujassam etadi. Prezidentimizning 2017-yil 5 iyuldagi **"Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"**gi PF-5106-sonli Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish maqsadida O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati negizida **O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi**. Mamlakatimiz Prezidenti tashabbusi bilan O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgan kun – **30 iyung' sanasi mamlakatimizda "Yoshlar kuni" sifatida nishonlanadi**. Yoshlar ittifoqi respublikamizda yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishida davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlikni ta'minlovchi, **"Yoshlar – kelajak bunyodkori"** shiori ostida professional faoliyatni amalga oshiruvchi tuzilmaga aylanadi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi vakolatli idoralar faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini tashkil etish, natijasi bo'yicha tahsirchan choralar ko'rish maqsadida O'zbekiston yoshlar ittifoqining huquqiy va amaliy vakolatlari kengaytirildi, tegishli imkoniyat va imtiyozlar berildi. **2017- yil 22 avgust kuni** O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining qo'shma

qarori va u asosida oliy ta'lim tizimidagi dosniang ich tasnifiolari strukturasi tasdiqlandi.

2017- yil 5 avgust kuni O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi bilan kelishilgan "Oliy ta'lim tizimida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi" tasdiqladik. Unga ko'ra oliy ta'lim muassasalariga "Oliy ta'lim muassasasining Yoshlar ittifoqida ishlagan **35 yoshdan** oshgan kadrlarini shu ta'lim muassasasida olib qolish, yahni unga turli yo'nalishdagi lavozimlardan birini berish chorasini ko'rish" topshirig'i berildi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi tizimlarida samarali faoliyat yuritayotgan xodimlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ularni davlat boshqaruvi organlaridagi kadrlar zaxirasiga kiritish mexanizmi ishlab chiqilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlari bilan vazir va uning o'rinbosarlarining ochiq muloqotlari jadvalini tasdiqladik hamda OTMlar rahbarlariga shunday jadval tuzish topshirig'i berildi.

Oliy ta'lim muassasalarida Yoshlar ittifoqi uchun 2 tadan xona ajratildi va ularning Kengash yig'ilishlarini "Mahnaviyat xonasi"da o'tkazishi mumkinligi belgilab qo'yildi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida biz "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturini qabul qildik. Ushbu dastur ijrosi uchun shu yilning o'zida 786 milliard so'm mablag' yo'naltirilmoqda. Buning natijasida, jumladan, 100 mingdan ortiq yoshlarimizning bandligi ta'minlanadi.

Yosh oilalarni zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlash, yoshlarni ishga joylashtirish, kasb-hunarga tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha belgilangan katta ishlar izchil davom ettiriladi.

O'zbekiston sportchilari Indoneziyaning Jakarta va Palembang shaharlarida o'tkazilgan XVIII Osiyo o'yinlarida **21 ta oltin, 24 ta kumush va 25 ta** bronza medallarini qo'lga kiritib, jami 70 ta medal bilan umumjamoa hisobida **5-o'rinni** egalladi.

O'zbekiston terma jamoasi yozgi Osiyo o'yinlaridagi ishtiroki tarixida oltin, kumush va bronza medallar soni va umumiy medallar soni bo'yicha eng yaxshi natijani qayd etdi.

Hammamizga yaxshi ma'lumki, oldimizda katta siyosiy voqea turibdi. Shu yil dekabr oyida mamlakatimiz parlamenti va mahalliy kengashlarga saylovlar bo'lib o'tadi.

Bu saylovlar milliy mustaqilligimizni yanada mustahkamlash, O'zbekistonni dunyodagi rivojlangan, demokratik davlatlar qatoriga ko'tarishda yana bir muhim amaliy qadam bo'ladi.

SXEMA BO`YICHA O`QUV TOPSHIRIQLAR
(talabalar mustaqil bajaradilar)
SXEMA

Harakatlar strategiyasi	Talaba tushunchasi

SXEMA

5 TA MUHIM TASHABBUS	AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR

3-mavzu. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz
(2 soat)

Talaba-o'quvchilar O'zbekiston Respublikasining turli hududlarida barpo etilgan diqqatga sazovor joylar, ma'naviyat va madaniyat maskanlari bilan tanishtiriladi, oliy ta'lim muassasiga yaqin bo'lgan joylarga borgan holda, boshqalari esa taqdimot tariqasida)

Blits-so'rov savollari

1. Mustaqillik uchun kurashgan kimlarni bilasiz?
2. Sizningcha mustaqillik tom ma'noda nima?
3. O'zbekistonning mustaqillik odimlarini ketma-ketlikdagi xronologiyasini tuzing?
4. O'zini anglash baxti deganda nimani tushunasiz?
5. 2016-2019 yillarda yo'li O'zbekistonning rivojlanish va yuksalish, jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallash davri ekanligini ko'rsatib bering.
6. Vatanimiz taraqqiyotining mustahkam poydevori nimaga asoslangan?
7. Beshta muhim tashabbusni sanang.

8. O'zingiz yashab turgan hududda mustaqillik sharoitini bilan barpo etilgan qanday inshootlarni bilasiz?

Izoh: Dars mashg'ulotlarini tashkil etishda o'zi yashab turgan hududda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan o'zgarishlarni yoritish uchun mavjud materiallar, statistik ma'lumotlardan foydalanishi hamda ko'chma mashg'ulotlarni e'tiborga molik joylar (yangi qurilgan inshootlar, sanoat korxonalari, madaniyat-ma'rifat maskanlari)ga sayohat tarzida uyushtirishlari mumkin.

Eslatma: Mavzuga oid slaydlar taqdim etilmoqda



O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Namangan muhandislik qurilish instituti

JONAJON O'ZBEKISTONIM, MANGU BO'L OMON!

Namangan- 2019

1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston Respublikasining Mustaqilligi e'lon qilindi. Inson uchun ozodlikdan qadri ne'mat yo'q. 1991-yil 1-sentabr xalqimizning ma'naviy hayotida beqiyos o'rin egallagan har yili eng ulug', eng aziz bayram sifatida katta shodur hurratlik bilan nishonlanadigan qutlug' ayyomga aylandi. Shu kundan e'tiboran jahon xaritasida yangi mustaqil va suveren davlat – O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi





O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 8-iyul "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma sakkiz yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, O'zbekiston mustaqilligining yigirma sakkiz yilligi tantanalari "JONAJON O'ZBEKISTONIM, MANGU BO'L OMON!" shiori ostida o'tkazilishi ma'lum qilindi.



O'zbekiston mustaqillik yillarida mamlakatimizda sanoatning avtomobilsozlik, neft-gaz-kimyoye, neft-gaz mashinasozligi, zamonaviy qurilish materiallari sanoati, temir yo'l mashinasozligi, maishiy elektrotexnika, farmatsevtika, zamonaviy oziq-ovqat va to'qimachilik kabi mutlaqo yangi tarmoqlari barpo etildi.



Asaka va Pitnak shaharlarida «Jeneral Motors» kompaniyasi bilan hamkorlikda yengil avtomobillar, Samarqandda «Isuzu» avtobuslari va «MAN» kompaniyasi bilan hamkorlikda yuk avtomobillari ishlab chiqarish bo'yicha yangi zavodlar ishga tushirildi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolandi.



2018 yilda 18 ta davlatlararo rasmiy tashriflar amalga oshirildi va 52 milliard dollarlik 1 ming 80 ta loyiha bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Islom va Osiyo taraqqiyot banklari, boshqa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikdagi investitsiyalar hajmi 8,5 milliard dollarni tashkil etdi.





“Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar – kelajagimiz” kabi dasturlar doirasida 2 trillion so‘mga yaqin mablag‘ ajratilib, joylarda 2 ming 600 dan ortiq biznes loyihalari amalga oshirildi.



Ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, global dunyoda raqobatning ortishi sharoitida har bir davlat va jamiyatning bu jarayonda raqobatbardoshligi yoshlarning intellektual rivoji hamda ularning iste’dodi va qobiliyatlarini to’liq amalga oshirishga e’tibor berishga bog’liq bo’ladi.



Shuning uchun bu masala har doim davlatlarning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan barcha strategiyalarda aks ettirilgan. O‘zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarda rivojlanirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ham bu borada istisno bo‘lmadi. Unda alohida bo‘lim davlatning yoshlar siyosatini takomillashtirishga bag‘ishlangan. U O‘zbekistonning 10 million fuqarosi yoki mamlakat aholisining 31 foizini tashkil etuvchi yoshlarga nisbatan davlat siyosatining samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator ustuvor vazifalarni qamrab oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Asarlar to'plami, 1-23 jildlar.-T.: O'zbekiston, 1996-2016.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq /Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: —O'zbekiston, 2016. - 56 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muxim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: —O'zbekiston, 2017.-104 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi 07-12-2016.-Toshkent: —O'zbekiston, 2017. -48 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: —O'zbekiston, 2017.-491 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi —O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmoni //Xalq so'zi, 2017, 8 fevral.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentyabrdagi —O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5185-sonli Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T., 22 dekabr 2017 yil. Xalq so'zi gazetasining 2017 yil 23 dekabr № 258 (6952)-soni.
9. Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida Fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5430-son Farmoni. -T.: 2018 yil 4 may..

Foydalanilgan Internet resurslar:

1. www.xs.uz
2. www.xdp.uz
1. www.adolat.uz
2. www.uzlidep.uz
3. www.milliytiklanish.uz
4. www.mahalla.uz
5. www.kamolot.uz
6. www.kasaba.uz
7. www.kun.uz